

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
ANIQ FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

MATEMATIKA

Sh.T.Nishonova, M.S.Sodiqova

Elliptiko-giperbolik tipdagi tenglama uchun bir chegaraviy masalaning
bir qiymatli yechimi..... 4

N.S.Ikramova, M.T.Yunusalieva

Solvability of a mixed problem for a degenerate sub-diffusion
equation in a rectangular domain 12

INFORMATIKA

B.A.Umarov

IoT qurilmalarini tarmoqqa ulashdagi protokollar tahlili 25

B.A.Umarov, Sh.M.Kimsanboyeva

Tarmoq energiya samaradorligini oshirish strategiyalari..... 29

FIZIKA-TEXNIKA

G.Q.Muxamadaliyeva, M.R.Akbaraliyeva

Tabiiy va sun'iy tolalarni o'quvchilarga o'rgatishda steam va
smart metodlari orqali o'qitish samaradorligini oshirish..... 32

M.F.Solijonova

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalariga zamonaviy innovatsion pedagogik
texnologiyalardan foydalanib 'metallarning xossalarini o'qitish 36

J.R.Bobojonova

Umumta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol
usullarining roli 40

Sh.Sh.Shuxratov, S.A.Ismoilova

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar uchun interfaol
pedagogik yondashuvlar 44

C.M.Отажонов, P.H.Эргашев, K.A.Ботиров, Д.Х.Нажмиддинова

Оптические свойство и рентгеноструктурный анализ тонких
пленок cдте с глубокими примесными уровнями 49

M.X.Рахмонкулов

Цели и методы изучения радиационных дефектов в полупроводниках 57

I.V.Xoldarova, Sh.A.Ibragimova

Mehnatsevarlik tushunchasining asosiy sotsiomadaniy
va tarbiyaviy kontsepsiyalari 61

ILMIY AXBOROT

G.X.Ismoilova

Xalq hunarmandchiligi va milliy qadriyatlarni umumiy o'rta ta'lim
maktablarida smart usulidan foydalanib o'qitish samaradorligi 67

F.R.Muxitdinova

Magnit maydondagi p-n o'tish kuchlanishining turli temperaturalarda o'zgarishi 671



UO'K:378.014.543

**XALQ HUNARMANDCHILIGI VA MILLIY QADRIYATLARNI UMUMIY O'RTA TA'LIM
MAKTABLARIDA SMART USULIDAN FOYDALANIB O'QITISH SAMARADORLIGI****ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ НАРОДНЫМ РЕМЁСЛАМ И НАЦИОНАЛЬНЫМ
ЦЕННОСТЯМ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ SMART-
МЕТОДА****THE EFFECTIVENESS OF TEACHING FOLK CRAFTS AND NATIONAL VALUES IN
GENERAL SECONDARY SCHOOLS USING THE SMART METHOD****Ismoilova Gulzoraxon Xasanjon qizi** 

Farg'ona davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi (texnologik ta'lim) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalq hunarmandchiligi va qadriyatlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida SMART usulidan foydalanib, o'qitish samaradorligi, uning yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, hunarmandchilik elementlarini o'quv dasturlariga integratsiya qilish yo'llari va dolzarb muammolar yoritilgan hamda zamonaviy SMART usullarini qo'llagan holda bilim olish darajasi 30-40 % oshganligi ko'rsatilgan.

Аннотация

В данной статье проанализирована эффективность преподавания народного ремесла и национальных ценностей в общеобразовательных школах с использованием метода SMART. Освещено значение данного подхода в духовно-нравственном воспитании подрастающего поколения, его роль в сохранении и развитии национальных ценностей. Также рассмотрены пути интеграции элементов ремесленного искусства в образовательные программы и актуальные проблемы в этой сфере. Показано, что применение современных SMART-методов позволило повысить уровень усвоения знаний на 30–40 %.

Abstract

This article analyzes the effectiveness of teaching folk crafts and national values in secondary schools using the SMART method, as well as its significance in the spiritual and moral education of the younger generation and its role in preserving and promoting national values. The article also highlights the ways to integrate elements of folk crafts into educational curricula and addresses relevant issues. It is shown that the use of modern SMART methods has increased the level of knowledge acquisition by 30–40%.

Kalit so'zlar: Xalq hunarmandchiligi, umumiy o'rta ta'lim, milliy qadriyatlar, amaliy san'at, tarbiya, to'garak, kasb-hunar, zardo'zlik, SMART.

Ключевые слова: народное ремесло, общее среднее образование, национальные ценности, прикладное искусство, воспитание, кружок, профессия, золотное шитьё, SMART.

Key words: Folk crafts, secondary schools, national values, applied arts, upbringing, extracurricular clubs, vocational skills, gold embroidery, SMART.

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodni milliy o'zligiga sodiq qolish, tarixiy meros va milliy qadriyatlarni e'zozlaydigan qilib tarbiyalash ta'lim tizimining katta vazifalaridan biridir. O'zbekiston xalqining ko'p asrlik tarixida hunarmandchilik san'ati, urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar alohida o'rin egallagan bo'lib, ularni maktab ta'limi jarayonida o'quvchilarga to'g'ri yetkazib borish, ularning ma'naviy dunyosini boyitadi, ijodkorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur kabi sifatning shakllanishiga olib keladi.

Zamonaviy ta'lim amaliyotida interaktiv metodlar, xususan SMART texnologiyasi (Specific, Measurable, Achievable, Relevant, Time-bound)dan foydalanish orqali xalq hunarmandchiligi va milliy qadriyatlarni o'rgatish jarayonini samarali tashkil etishdan unumli foydalanishimiz kerak.. SMART yondashuvi o'quv jarayonini aniq maqsadlarga yo'naltirib va o'quvchilar faolligini oshirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hamda ta'lim sifati oshirishga olib borishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Xalq hunarmandchiligi va milliy qadriyatlarni o'qitish masalasi bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Quyida ushbu yo'nalish bo'yicha asosiy g'oyalar qisqacha yoritishga harakat qildim:

Ko'plab tadqiqotchilar xalq hunarmandchiligining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, uning tarixiy, ma'naviy jihatlari borasida ilmiy izlanishlar ustida ish olib borganlar. Adabiyotlarda hunarmandchilikning quyidagi ijobiy ta'sirlarini qayd etdim:

milliy o'zlik va tarixiy xotirani mustahkamlaydi va mehnatsevarlik va kasbga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi hamda amaliy san'at ko'nikmalarini shakllantiradi.

Pedagogik adabiyotlarda milliy qadriyatlarni o'rgatish quyidagi metodlar orqali amalga oshiriladi:

integrativ yondashuv (tarix, texnologiya, chizmachilik kabi fanlararo bog'liqlik);

interaktiv metodlar (modellashtirish, guruhli ish, muloqot);

amaliy mashg'ulotlarni va ustaxonalarni tashkil etish.

Ushbu adabiyotlarda milliy qadriyatlar orqali tarbiyaviy maqsadlar samarali amalga oshishi ko'rsatilgandir.

SMART yondashuvi birinchi boshqaruv va biznes sohasida yaratilgan bo'lib, keyinchalik ta'limda keng qo'llanila boshlandi. Ilmiy manbalarda SMART quyidagilar bilan izohlanadi:

Tadqiqotchilarning fikricha, SMART usuli o'quv jarayonini tizimli, shaffof to'g'ri va natijaga yo'naltirilgan qiladi.

Xalq hunarmandchiligi SMART texnologiyasini integratsiya qilishga oid ishlanmalar. So'nggi yillarda chiqarilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar va maqolalarda:

hunarmandchilik darslarida loyihaviy o'qitish va bosqichma-bosqich o'rgatishni olib borish;

kichik guruhlar bilan ishlab, o'quvchilar natijalarini o'lchash;

mahsulot yaratish jarayonida SMART talablariga moslash kabi takliflar uchraydi.

1. Nazariy tadqiqot metodlari

Psixologik pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlilini qilish

Me'yoriy hujjatlarni o'rganish

SMART texnologiyasi bo'yicha ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish

2. Amaliy metodlar

O'qituvchilardan so'rovnoma olish va o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish. Dars jarayonini kuzatish hamda tajriba-sinov darslarini tashkil etishdan iborat.

3. Pedagogik eksperiment

Eksperimental va nazorat sinflarida darslarni tashkil qilish

SMART usuli qo'llanilgan darslar samaradorligini oshirish.

Natijalarni taqqoslash

4. Statistik tahlil metodlari .

O'quvchilarning bilim ko'rsatkichlarini qayta ishlash

Jadval, grafik va diagrammalar orqali natijalarni tahlillarni qilish

Tajriba samaradorligi bo'yicha xulosa chiqarish

Xalq hunarmandchiligi o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy boyligi, turmush tarzi, didi va estetik qarashlarini ifodalovchi amaliy san'at turlaridir. Kulollik, kashtachilik, zargarlik, misgarlik, yog'och o'ymakorligi, gilamdo'zlik kabi hunar turlari nafaqat moddiy boylik yaratish, balki xalqning ruhiy-ma'naviy olamini tarannum etadi. Mazkur merosni yosh avlodga o'rgatish orqali ularning Vatanga sadoqat, ajdodlarga hurmat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini shakllantiradi.

O'quvchilarning xalq hunarmandchiligi orqali nafaqat ijodiy, balki ma'naviy rivojlanish masalalari Abdullayeva. G. o'zbek xalq amaliy san'ati va metodikasida va Jo'rayev, S. Milliy qadriyatlar orqali o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish tadqiqotlarida o'z o'rnini topdi

Hunarmandchilikni maktablarda o'qitishning dolzarbligi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqish ortadi. Kasbga yo'naltirishda ba'zi o'quvchilar hunar orqali o'z kelajagini aniqlaydi. Mehnat tarbiyasi bilan hunar o'rganish jarayoni mehnatga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Madaniy tadbirlar va ko'rgazmalar orqali o'quvchilarning ijodiy ishlarini namoyish etish va ularni rag'batlantirib borish. Interaktiv darslar yordamida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, virtual ustaxona yaratish.

Mazkur yo'nalishda quyidagi muammolar mavjud: Yetarli moddiy-texnik baza yo'qligi, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi, o'quv-uslubiy materiallarning kamligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun Hunarmandchilik maktablari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilishi, maxsus o'quv kurslari va seminarlar tashkil etilishi, multimediya vositalaridan keng foydalanish, didaktik materiallar, videodarsliklar ishlab chiqilishi lozim.

"Xalq hunarmandchiligi"ni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish samaradorligini oshirish uchun SMART usulidan foydalanish.

SMART — bu maqsadlarni belgilashda qo'llaniladigan metod bo'lib, quyidagi qismlardan iborat: S – Specific (Aniq), M – Measurable (O'lchab bo'ladigan) A – Achievable (Erishish mumkin bo'lgan) R – Relevant (Dolzarb, muvofiq) T – Time-bound (Vaqt bilan chegaralangan) S — Specific (Aniq maqsad) deb belgilab olamiz.

Maqsad: O'quvchilarga milliy hunarmandchilik turlarini o'rgatish, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish va madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalash. Deb oldik.

Misol: "7-sinf o'quvchilariga zardo'zlikning asosiy elementlarini o'rgatish va haftalik dars davomida kamida bitta amaliy mahsulot tayyorlashga erishish."

Zardo'zlik — o'zbek xalqining qadimiy va boy hunarmandchilik turlaridan biri bo'lib, unda matoga oltin va kumush iplar bilan bezaklar ishlanadi. 7-sinf o'quvchilari yosh jihatdan ijodiy tafakkuri shakllanayotgan, milliy qadriyatlarga nisbatan qiziqishi kuchayadigan bosqichda bo'lgani uchun ularni zardo'zlik san'ati bilan tanishtirish madaniy merosni o'rganishga, estetik didni rivojlantirishga va amaliy ko'nikma hosil qilishga undaydi.

"O'quvchi zardo'zlikning 3 asosiy elementini nomlay oladi va oddiy naqshni matoga tikishni o'rganadi va o'quvchi nima o'rganishini aniq biladi. O'qituvchi darsda nimaga erishishni rejalashtiradi. Boshqaruv va nazorat osonlashadi.

M — Ta'lim samaradorligini o'lchaymiz.

O'quvchilarning nazariy test natijalari (% bilan). Amaliy ishlar soni va sifati (masalan, gilam to'qish, zardo'zlik, kulolchilikda bajarilgan ishlar). So'rovnoma orqali o'quvchilar va ota-onalarning fikrlari. Ko'rgazmalarda qatnashgan ishlar sonini quyidagicha ko'rishimiz mumkin.

Misol: "O'quvchilarning 75% dan ortig'i hunarmandchilik haqida asosiy bilimlarga ega bo'lishi va amaliy mashg'ulotlardan kamida bitta mahsulot tayyorlashi." Natija o'lchanadigan bo'lishi kerak. O'quvchining o'zlashtirgan bilim va ko'nikmasi baholanadi hamda mashg'ulotlar yakunida aniq natijalar olinadi (tayyor mahsulot).

A — Maqsadlar real bo'lishi kerak, resurslar va vaqt imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda.

Misol: "Maktabda mavjud bo'lgan resurslar (ustaxona, materiallar) asosida zardo'zchilik bo'yicha boshlang'ich darslarni o'tkazish." Shuningdek, mahalliy hunarmandlarni taklif qilish orqali tajriba almashish darslarini tashkil etish.

> "O'quvchilarga faqat boshlang'ich naqshlar va tikish texnikasi o'rgatiladi. Murakkab elemenlar emas, chunki bunda o'quvchi o'z kuchiga ishonadi va vazifani bajarish mumkin bo'lgan darajada bo'lgani uchun muvaffaqiyatga erishadi.

R — Mavzu o'quvchilarning hayoti, qadriyatlari va milliy o'zlik bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Izoh: Xalq hunarmandchiligi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi, madaniy merosni asrashga xizmat qilishi, kasbga yo'naltirishda foydali bo'lishi kerak. Misol: "O'quvchilarga kasb tanlashda milliy hunarmandchilikni bir yo'nalish sifatida ko'rsatish." Maqsad dolzarb va foydali bo'lishi kerak.

> Zardo'zlik orqali o'quvchilarda milliy merosga hurmat, san'atga qiziqish va estetik tafakkur shakllanadi. O'quvchilar o'rganayotgan narsaning hayotda kerakligini anglaydi. Madaniy merosni qadrlash tuyg'usi rivojlanadi. Zamon bilan uyg'un amaliy ko'nikma hosil bo'ladi.

T — Har bir maqsad uchun aniq muddat belgilanadi.

Misol: 1-chorakda: Hunarmandchilik tarixini o'rganish. 2-chorakda: Bir hunar turi (masalan, zardo'zlik) bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar. 3-chorakda: Mahalliy ustalar bilan uchrashuvlar. 4-chorakda: O'quvchilar ishtirokida ko'rgazma tashkil etish.

> Zardo'zlikning asosiy elementlari 3 dars davomida o'rgatiladi:

1-dars: Nazariya va namunalar ko'rsatish

2-dars: Boshlang'ich naqshni chizish

3-dars: Naqshni tikish va baholash.

O'quvchi har bir bosqichda nimalarni o'rganishi kerakligini biladi. O'qituvchi vaqtni to'g'ri taqsimlaydi hamda darslar rejali, tizimli va olib boriladi.

XULOSA

Xalq hunarmandchiligi va milliy qadriyatlarni o'qitishda SMART usuli imkoniyatlari, uni dars jarayoniga jalb qilish mexanizmlari hamda bu yondashuvning o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga ta'siri o'rganiladi. O'quvchilarni milliy merosni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatishga chaqiraman.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat. 1997.
2. Yusupov Sh., To'raqulov I. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchilik asoslari. – Toshkent: 2020. "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. Qodirov A. "Kasb-hunar ta'limida xalq hunarmandchiligini o'qitish usullari" // Kasb-hunar ta'limi jurnali. 2019.
4. Boboyev A. "Milliy qadriyatlar asosida kasb-hunar ta'limini takomillashtirish" // Pedagogik ta'lim muammolari ilmiy jurnali, №4.2018.
5. www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Ta'lim portali (elektron resurs)
6. www.hunarmand.uz – "Hunarmand" uyushmasining rasmiy sayti (yangiliklar va statistik ma'lumotlar)